

## **Kontragentning ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida deklaratsiyasi**

“O'zog'irsanoatloyiha instituti” aksiyadorlik jamiyatining (bundan buyon matnda Jamiyat deb yuritiladi) kontragenti tomonidan mazkur deklaratsiyani topshirish O'zbekiston Respublikasi “Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida”gi Qonunining talablari buzilishi oldini olishga qaratilgan bo'lib, majburiy hisoblanadi.

Deklaratsiyada qo'llaniladigan atamalar:

**Jamiyat ishchisi** – Jamiyatda mehnat shartnomasi asosida mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan boshqaruv ishchisi;

**ishchiga aloqador shaxslar** – Jamiyat ishchisining yaqin qarindoshlari; Jamiyat ishchisi va (yoki) uning yaqin qarindoshlari qaysi yuridik shaxsning ustav fondi (ustav kapitali) aksiyalariga yoki ulushlariga egalik qilsa, o'sha yuridik shaxs; Jamiyat ishchisi yoxud uning yaqin qarindoshlari qaysi yuridik shaxsda boshqaruv organining rahbari yoki a'zosi bo'lsa, o'sha yuridik shaxs.

**yaqin qarindoshlar** – ota-onalar, aka-ukalar, opa-singillar, o'g'illar, qizlar, er-xotinlar, shuningdek er-xotinlarning ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari.

Jamiyat bilan fuqarolik huquqiy munosabatlarga kirishishda kontragentning Jamiyat ishchisiga aloqadorligi mavjudligi (mavjud bo'lgan taqdirda) to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilishi va Kontragentlarni tekshirish bo'yicha yo'riqnomada nazarda tutilgan zarur ma'lumotlar (hujjatlar)ni taqdim etishi shart. Kontragent tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar keyinchalik Jamiyat tomonidan har tomonlama tekshirilishi zarur.

Kontragent tomonidan bila turib yolg'on yoki noto'g'ri ma'lumotlar taqdim etilganligi aksilkorrupsiya qonunchiligida belgilangan huquqiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Mazkur deklaratsiya (to'ldirilgach) konfidensial bo'lib, faqat Jamiyatning ichki foydalanishi uchun mo'ljallangan. Ushbu deklaratsiyaning mazmuni uchinchi shaxslarga oshkor qilinmaydi va ular tomonidan biron bir maqsadda foydalanilmaydi. Deklaratsiyani saqlash muddati uch yil.

*Jamiyat kontragenti - yuridik shaxs vakilining lavozimi, F.I.Sh. (Jamiyat kontragenti-jismoniy shaxsning F.I.Sh. va maqomi)*

---

---

“O‘zog‘irsanoatloyiha instituti”  
AJ Bosh direktori  
B.Xazratkulovga

---

(Kontragent-yuridik shaxsning firmali nomi yoki kontragent-jismoniy shaxsning F.I.Sh.)

STIR (JShShIR) \_\_\_\_\_

nomidan “ \_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 202\_\_ yildagi \_\_\_\_\_-son ishonchnoma  
asosida vakillik qilayotgan \_\_\_\_\_

---

(lavozimi, F.I.Sh. to‘liq)

Deklaratsiyani to‘ldirish sanasi « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2024 yil

1. Aloqadorligi mavjud bo‘lgan Jamiyat ishchisining F.I.Sh. va lavozimi:

---

---

2. Jamiyat ishchisi bilan (*tashkilotingiz rahbar xodimlarining*) qarindoshlik  
to‘g‘risidagi ma‘lumotlar: \_\_\_\_\_

---

3. Jamiyat ishchisiga aloqadorligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar:

---

---

---

Men shu bilan javoblarim va har qanday tushuntirishlarim to‘liq, to‘g‘ri va  
haqiqat ekanligini tasdiqlayman.

Imzo: \_\_\_\_\_